

## **INNOVATIONLIK MUHANDISLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY OMILI SIFATIDA**

***Hamraqulov Yorqin Murtazaqulovich***  
*Guliston davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi*

Hozirgi paytda jamiyatning maktab oldiga qo‘yayotgan talablari kun sayin ortib bormoqda va bu talablarga to‘g‘ri yondashgan holda ularni amalda bajarish o‘qituvchining vazifasidir. Pedagogik faoliyat inson mehnatining eng murakkab sohalaridan biridir. Hozirgi jamiyatimizda o‘qituvchi eng faol pozitsiyadagi shaxs sifatida zamонавија bilimlarini egallab borishi, tinimsiz izlanuvchan va fidoiy bo‘lishi lozim chunki, u kechiktirib bo‘lmas jarayon shaxsni intellektual hamda ma’naviy qashshoqlikdan qutqarib qoladi. Hozirgi zamon standartlarini amalga tadbiq etish o‘qituvchidan nafaqat yuqori malakani va doimiy kasbiy rivojlanishni, balki o‘z ishiga ijodiy yondashishni talab etadi. O‘qituvchining innovatsionligi o‘z tajribasini qayta ko‘rib chiqishi va yaxshilashi hammaga ma’lum narsalarni o‘zgartira olishi va ijodiy foydalanaolishi , sifat jihatdan yangiliklarni yaratishi juda katta ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda.

Innovatsionlik tushunchasi (lot, ing. "create"-yaratish, "creative" yaratuvchi, ijodkor) ingliz tilidan tarjima qilinganda ijod ma’nosini anglatadi [1. 85-bet].

Innovatsionlikni: ijodga intilish, hayotga ijodiy yondashish, o‘ziga doimiy tanqidiy nazar solish va tahlil etish deyish mumkun. Hozirgi zamon psixologiya va pedagogika lug‘atlariga asoslanib o‘qituvchining innovatsionligi deb uning fikirlaridagi sezgilaridagi, muloqotdagi, alohida faoliyat turidagi, ijodiy yondashish, bilish darajasi deb ta’riflash mumkun. Innovatsionlik insonda mavjud ma’lumotlarni qayta ishlab chiqarish va ularni cheksiz yangi modelini yaratishga javob beradi.

“Innovatsionlik otasi” nomi bilan mashhur Pol Torrans to‘rtta innovatsionlik konikmasini aniqlagan. Uning olib borgan tadqiqotlari shundan dalolat beradiki, mazkur innovatsion ko‘nikmalarni shakllantirish va ularni baholash mumkun:

1. Ravonlik. Ko‘plab g‘oyalarni o‘ylab topish ko‘nikmasi ko‘p degan so‘zga asoslanadi.
2. Moslashuvchanlik. Turli g‘oyalarni o‘ylab topish ko‘nikmasi o‘zgartirish degan so‘zga asoslanadi.
3. O‘ziga xoslik. Boshqalarga o‘xshamagan, ajralib turuvchi g‘oyani o‘ylab topish ko‘nikmasi noyob degan so‘zga asoslanadi.
4. Yaratuvchanlik. G‘oyalarni kengaytirish ko‘nikmasi qo‘shish degan so‘zga asoslanadi [2. 46-bet.].

Innovatsionlik darslarida pedagoglardan ajoyib g‘oyalarni o‘ylab topish (o‘ziga xoslik); ularni kengaytirish (ishlab chiqish); yoki boshqa g‘oyalar bilan solishtirish va

ulardagi bog‘liqlikni topish (moslashuvchanlik) talab etilganda, mazkur ko‘nikmalar bir-biri bilan kesishadi.

Patti Drepeau tomonidan ham shaxsda innovatsionlik sifatlari ni muvaffaqiyatli rivojlantirishning to‘rtta yo‘li ko‘rsatilgan:

- Innovatsion fikirlash ko‘nikmasini shakllantirish;
- Amaliy innovatsion harakat ko‘nikmalarini rivojlantirish
- Innovatsion faoliyat jarayonlarni tashkil etish;
- Innovatsion mahsulot (ishlanma) lardan foydalanish.

Xorijiy pedagoglar, xususan, Patti Drapeauning fikricha, bir shaxsning ayniqsa o‘qituvchining innovatsionligi boshqalarni ijodiy jarayonini tashkil etishga ruhlantiradi [3. 67-bet.].

“Innovatsionlik yuqumli xususiyatga egadir; innovatsion bo‘lish uchun kishi ko‘proq innovatsion insonlar bilan muloqot qilishi va hamisha izlanishda bo‘lishi lozim. Har qanday ko‘nikmani shakllantirish mumkun bo‘lganiday, innovatsion fikirlash qobiliyati yoki ko‘nikmasini ham rivojlantirish mumkin. Bu bo‘lajak pedagoglarga ham taalluqli bo‘lib, innovatsionlik ustida ishslash bo‘lajak pedagoglarga noodatiy tarzda fikirlashga yordam beradi. Biroq, bo‘lajak pedagoglarni ruhlantirish va innovatsion bo‘lishga undash o‘qituvchining qay darajada malakali ekanligiga bo‘liq. Innovatsionlik bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar va innovatsionlik ko‘nikmasini shakllantirishda qo‘llanma sifatida xizmat qiladi. Bu auditoriyadagi muhit, bo‘lajak pedagoglarda fikirlash tarzining shakllanishi, o‘qituvchining yondashuv va strategiyalari elementlarini o‘z ichiga oladi”.

### **Bo‘lajak muhandislarda innovatsionlikni shakllantirish**

Bo‘lajak muhandislarni...	<ul style="list-style-type: none"> <li>- qiziqarli;</li> <li>- murakkab vazifalar;</li> <li>- aniq maqsad va vaqt bilan ta’minlash</li> </ul>
Bo‘lajak muhandislarga...	<ul style="list-style-type: none"> <li>- innovatsionlik muvozanatsizlik xissini yuzaga keltirishini anglatish;</li> <li>- bezovtalik va qo‘rquv hissidan xalos bo‘lishga yordam berish;</li> <li>- innovatsion fikirlash ko‘nikmalarini boshqa ko‘nikmalar bilan rivojlantirishga yordam berish;</li> <li>- “qutqarib” qolish emas, balki yo‘l yo‘riq ko‘rsatish</li> </ul>
Bo‘lajak muhandislarni...	<ul style="list-style-type: none"> <li>- suhbatlar orqali rag‘batlantirish;</li> <li>- konstruktiv sharhlar bilan ta’minlash;</li> <li>- yangi ko‘rsatmalar bilan tanishtirib borish</li> </ul>
Bo‘lajak muhandislari...	<ul style="list-style-type: none"> <li>- o‘zlarida innovatsionlikning boshqa turlarini ham rivojlantiraolishlari;</li> <li>- guruhda ishlay olishlari;</li> <li>- hissiy jihatdan erkin va ijobiy fikirlarga ega bo‘lishlari uchun poydevor bo‘ladigan muhitni yaratish</li> </ul>

Hалигача та'лим тизимда ко‘плаб ўндашув ва методлар ижодији фикирлаш эмас, талқин ва таҳлилга, я‘ни берилган ма’лумотни тушунуб, то‘ғ‘ри yetkazishга, нари бора, бир неча ахборотни умумиylashtirib, xulosa chiqara olishga yo‘naltirilgan.

Salmoqli amaliy ishlar olib borilayotganiga qaramay, ko‘pchilik o‘qituvchilar hali hanuz shaxs o‘zlarida hamda bo‘lajak pedagoglarda innovatsionlik sifatlarini qanday qilib samarali shakllantirish tajribasini o‘zlashtira olmayaptilar.

Balki darslarni avvaldan o‘ylab, rejalashtirib o‘tilishi bo‘lajak pedagoglar uchun qiziq bo‘lmayotgandir, balki ta’lim mazmunining muayyan qolipga solinganligi bo‘lajak pedagoglar uchun hech qanday stimul bermayotgandir, rag‘bat bildirmayotgandir

Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarini yechish, muammoli vaziyatlarni таҳлil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e’tibor qaratish zarur.

O‘quv mashg‘ulotlarining avvaldan rejalashtirilishidan voz kechish, bo‘lajak pedagoglarda tanqidiy, innovatsion tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish, ularni ijodiyfikirlash, yangi g‘oyalarni o‘ylab topishga majbur qilish ta’lim olishga bo‘lgan munosabatni o‘zgartirish, ularni yutuqlarga erishishga rag‘batlantirishda asosiy omil bo‘ladi. O‘qituvchining ijodkor va innovatsion bo‘lishi yoki bo‘lmasligi эмас, balki darslarni ijodkorlik, innovatsionlik ruhida tashkil etish, yangi g‘oyalarni ta’lim jarayonida sinab ko‘rishga intilishi zarur.

## **ADABIYOTLAR**

1. Muslimov N.A. “Bo‘lajak kasb ta’lim o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirish” /Monografiya. – T.: Fan, 2004.
2. Muslimov N.A. “Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy komponentligini shakllantirish texnologiyasi” /Monografiya. –T.: ”Fan va texnologiya” nashriyoti, 2013.
3. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.
4. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. ”Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot”. –T.: ”Fan”, 2005.
5. Sayidahmedov N.”Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya”. – T.: 2003.